

ISSN 2181-2764
2026



KELAJAK BUNYODKORLARI




СТРОИТЕЛИ БУДУЩЕГО



BUILDERS OF THE FUTURE[®]



**BUILDERS OF THE FUTURE**journal homepage:
<https://kelajakbunyodkori.uz/>**COMPARATIVE ANALYSIS OF PHONETIC CHANGES IN THE PRONUNCIATION OF KANDAHAR AND NANGARHAR DIALECTS****Shodiya Akromova***1st-year Master's student**Higher School of Iranian and Afghan Studies**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***U. Sh. Abduvaliyeva***Senior Lecturer, Higher School of Iranian and Afghan Studies**Tashkent State University of Oriental Studies, PhD**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Pashto language, Kandahar dialect, Nangarhar dialect, phonetic changes, pronunciation features, vowels and consonants, dialectal variation, comparative linguistics, Pashto dialectology.

Received: 25.03.26**Accepted:** 26.03.26**Published:** 27.03.26

Abstract: This article provides a comparative analysis of phonetic changes observed in the major regional dialects of the Pashto language—Kandahar and Nangarhar. The study examines changes in the pronunciation of consonants and vowels, phonetic alternations, sound deletion and insertion, as well as stress and intonation features, illustrated with examples. Conservative phonetic features characteristic of the Kandahar dialect and innovative pronunciation phenomena observed in the Nangarhar dialect are analyzed, and their relationship to standard literary Pashto is determined. The study also explains the connection between phonetic differences and social, geographical, and historical factors. The results of the research are of significant scientific importance for the fields of Pashto dialectology, phonetics, and comparative linguistics, and contribute to the systematic study of dialectal variation.

QANDAHOR VA NANGARHOR LAHJALARI TALAFFUZIDAGI FONETIK O'ZGARISHLARNING QIYOSIY TAHLILI**Shodiya Akromova***1-kurs magistratura bosqichi talabasi**“Eronshunoslik va afg'onshunoslik” oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

Toshkent, O'zbekiston

O'.Sh.Abdualiyeva

TDSHU, "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi katta o'qituvchisi, PhD

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: pashtu tili, Qandahor lahjasi, Nangrahor lahjasi, fonetik o'zgarishlar, talaffuz xususiyatlari, unli va undosh tovushlar, lahjaviy farqlanish, qiyosiy tilshunoslik, pashtu dialektologiyasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada pashtu tilining yirik hududiy Qandahor va Nangrahor lahjalarida kuzatiladigan fonetik o'zgarishlar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda undosh va unli tovushlarning talaffuzdagi o'zgarishlari, fonetik almashinuvlar, tovush tushishi va qo'shilishi, urg'u va intonatsiya xususiyatlari misollar asosida yoritilgan. Qandahor lahjasiga xos konservativ fonetik belgilar hamda Nangrahor lahjasida kuzatiladigan innovatsion talaffuz hodisalari tahlil qilinib, ularning adabiy pashtu tiliga munosabati aniqlanadi. Shuningdek, fonetik farqlarning ijtimoiy, geografik va tarixiy omillar bilan bog'liqligi izohlanadi. Tadqiqot natijalari pashtu dialektologiyasi, fonetika va qiyosiy tilshunoslik sohalari uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi hamda lahjalararo tafovutlarni tizimli o'rganishga xizmat qiladi.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФОНЕТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ В ПРОИЗНОШЕНИИ ДИАЛЕКТОВ КАНДАГАРА И НАНГАРХАРА

Шодия Акромова

Студентка 1 курса магистратуры

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О.Ш. Абдувалиева,

Старший преподаватель Высшей школы иранистики и афганистики,

Ташкентский государственный университет востоковедения, PhD

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: пушту, кандагарский диалект, нангархарский диалект, фонетические изменения, особенности произношения, гласные и согласные звуки, диалектные различия, сравнительное языкознание, диалектология пушту.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ фонетических изменений, наблюдаемых в крупных региональных диалектах пушту — кандагарском и нангархарском. В исследовании рассматриваются изменения в произношении гласных и согласных звуков, фонетические чередования, выпадение и добавление звуков, а также особенности ударения и интонации на основе примеров.

Анализируются консервативные фонетические признаки, характерные для кандагарского диалекта, и инновационные произносительные явления, наблюдаемые в нангархарском диалекте, а также определяется их соотношение с литературным пушту. Кроме того, объясняется связь фонетических различий с социальными, географическими и историческими факторами. Результаты исследования имеют важное научное значение для областей диалектологии пушту, фонетики и сравнительного языкознания и способствуют системному изучению диалектных различий.

Kirish. Hozirgi davr tilshunosligida lahjalararo farqlarni tadqiq etish sotsiolingvistika, areal tilshunoslik, tarixiy tilshunoslik va qiyosiy lingvistika kabi sohalar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Lahjalardagi o‘zgarishlar ijtimoiy omillar — migratsiya, urbanizatsiya, ta‘lim, ommaviy axborot vositalari va til siyosati ta‘siri ostida shakllanadi. Shu bois lahjalarni o‘rganish til va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi .

Lahjalar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash adabiy til me‘yorlarini belgilash, orfografiya va orfoepiya qoidalarini takomillashtirishda muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, dialektal xususiyatlarni hisobga olish tilni o‘qitish, tarjima, lug‘at tuzish va nutq texnologiyalarini (masalan, nutqni tanish va sintez qilish) rivojlantirishda katta amaliy ahamiyatga ega.

Zamonaviy tilshunoslikda lahjalarni tizimli va ilmiy asosda o‘rganish XIX asr oxirlarida shakllanib, Wenker va Gilliéron ishlari bilan dialektologiya mustaqil fan sohasi sifatida rivojlandi. Keyinchalik bu yo‘nalish turli til oilalarida, jumladan, slavyan, turkiy va hind-yevropa tillarida keng qo‘llanildi. Jumladan, yevropa tilshunosligida Georg Wenker (1852–1911) zamonaviy dialektologiyaning asoschilaridan biri. U Germaniyada dialektologik xaritalash (lingvistik atlas) ishlarini boshlab berdi. Wenker lahjalarni yozma so‘rovnomalar orqali tadqiq etish usulini joriy qilgan. Jules Gilliéron (1854–1926) Fransuz tilshunosi, “Atlas linguistique de la France” (1902–1910) muallifi. U lahjalarni geografik jihatdan o‘rganish va areal tilshunoslikning shakllanishiga katta hissa qo‘shgan. Hugo Schuchardt (1842–1927) U lahjalarning ijtimoiy va tarixiy omillar bilan bog‘liqligini yoritgan, dialektlarni qat‘iy chegaralar bilan emas, balki uzluksiz til maydoni sifatida talqin qilgan. Ferdinand de Saussure (1857–1913) Bevosita dialektolog emas, biroq tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilishi va langue–parole qarashi lahjalarni ilmiy tushunishda muhim nazariy asos bo‘ldi. Turk va Sharq tilshunosligida Wilhelm Radloff (1837–1918) Turkiy tillar va ularning lahjalarini birinchilardan bo‘lib ilmiy asosda o‘rgangan. “Turkiy lahjalar lug‘ati” bilan mashhur. Mahmud Koshg‘ariy (XI asr) “Devonu lug‘otit turk” asarida turkiy lahjalarning ilk tasnifini bergan. Zamonaviy dialektologiyaning tarixiy ildizi sifatida e‘tirof etiladi .

Pashtu tilshunosligida pashtu tilining tarixi va lahjalarini o'rganish XIX asr oxiri – XX asr davomida shakllangan bo'lib, bu yo'nalishda bir qator yevropalik va mahalliy olimlar muhim ilmiy izlanishlar olib borgan. Yevropa olimlaridan H. W. Bellew (1832–1892) Pashtu tilshunosligining dastlabki tadqiqotchilaridan biri. U pashtu tilining kelib chiqishi, grammatik tuzilishi va lahjalari haqida ilk ilmiy qarashlarni ilgari surgan. Bellew pashtu lahjalarini hududiy mezonlar asosida tasniflashga harakat qilgan. Georg Morgenstierne (1892–1978) Pashtu tilining tarixiy fonetikasi va dialektologiyasini ilmiy asosda tadqiq qilgan yetakchi olimlardan. U pashtu tilini hind-eron tillari doirasida chuqur tahlil qilib, lahjalar o'rtasidagi fonetik va leksik farqlarni aniqlagan. Morgenstierne pashtu dialektologiyasining asoschilaridan biri hisoblanadi. David Neil MacKenzie (1926–2001) Eroniy tillar mutaxassisi. Pashtu tilining tarixiy taraqqiyoti va fonologik tizimini eroniy tillar bilan qiyoslab o'rgangan. Uning ishlari pashtu tilining tarixiy tasnifida muhim o'rin tutadi. Lorimer, D. L. R. (1915) Pashtu tilining fonetik va grammatik xususiyatlarini, shuningdek, ayrim lahjalarning tavsifini bergan. U lahjalararo tafovutlarni dastlabki ilmiy materiallar asosida yoritgan. Penzl, Herbert (1955, 1961) Pashtu tilining tarixiy grammatikasi, fonologiyasi va morfologiyasini chuqur tadqiq qilgan. U pashtu tilining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda tahlil qilgan. Zamonaviy pashtu dialektologiyasi vakillari Tegey, Habibullah & Robson, Barbara (1996) Pashtu tilining zamonaviy tavsifi, grammatik tizimi va lahjalar tasnifini ishlab chiqqan. Ularning ishlari hozirgi zamon pashtu tilshunosligida asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Rahman, Tariq (1990–2014) Pashtu tilining tarixiy-sotsiolingvistik rivoji, lahjalar va til siyosati masalalarini o'rgangan. Pashtu lahjalarining ijtimoiy omillar bilan bog'liq taraqqiyotini tahlil qilgan. Pashtu tilshunosligida olib borilgan avvalgi tadqiqotlar asosan pashtu tilining umumiy tarixiy taraqqiyoti, grammatik tizimi hamda lahjalarning keng hududiy tasnifiga qaratilgan. Jumladan, H. W. Bellew, G. Morgenstierne, D. L. R. Lorimer va H. Penzl kabi olimlar pashtu tilining kelib chiqishi, tarixiy fonetikasi va ayrim lahjalarning umumiy tavsifini berganlar. Ularning ishlari pashtu dialektologiyasining nazariy asoslarini yaratgan bo'lsa-da, lahjalar o'rtasidagi fonetik tafovutlar tizimli va qiyosiy usulda yetarli darajada chuqur o'rganilmagan.

Ko'p tilli Afg'onistonning tillaridan biri bo'lgan pashtu tili nafaqat mamlakatning milliy va rasmiy tili (dari bilan bir qatorda), balki Pokistonning viloyat tili ham hisoblanadi. U Xayber-Paxtunxva hududida keng tarqalgan. Ushbu tilning ahamiyati Afg'oniston urushi davrida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ldi. Ethnologue ma'lumotlariga ko'ra, 2012-yilda Afg'onistonda ushbu tilda 25,5 million kishi so'zlashgan.

N. A. Dvgrynakov Afg'onistonda so'zlanadigan pashtu lahjalarini uch guruhga ajratgan. Shuningdek, u bu guruhlarini aholining aksariyati aynan shu lahjalarda so'zlashadigan yirik viloyatlar nomi bilan atashni taklif etgan. Natijada u Afg'onistonda qo'llaniladigan pashtu lahjalarining uch

asosiy guruhini shakllantirgan. Ushbu guruhlar quyidagilar: Kandahoriy (gʻarbiy), Nangarhoriy (sharqiy) va Paktiy (janubiy) lahjalar .

Habibulloh Tegi ham pashtu tilining uch lahjasini tasvirlab bergan. Ular gʻarbiy lahja yoki Kandahor lahjasi, markaziy lahja yoki Kobul lahjasi, hamda sharqiy lahja yoki Nangarhor lahjasi deb nomlangan .

Henderson oʻzining “Four Varieties of Pashto” (“Pashtuning toʻrt xil koʻrinishi”) nomli maqolalaridan birida Afgʻoniston va Pokistonda soʻzlanadigan pashtu lahjalarini toʻrt guruhga ajratgan. Uning tasnifiga koʻra, bu lahjalar Qandahor, Kvetta, shimoli-sharqiy hududlar va Peshovar mintaqalarida soʻzlanadi.

Hendersonning ushbu tasnifi til nomidagi ikkinchi undosh tovush — yaʼni پښتو va پښتو shakllaridagi farqqa asoslanadi. U ajratgan toʻrt lahja quyidagilar:

Pəšto (Qandahor),

Pəšto (Kvetta),

Pəçto (pashtu hududining shimoli-sharqiy qismi),

Paxto (Peshovar).

Mackenzie ham pashtu tilining toʻrt lahjaviy koʻrinishini tavsiflagan:

janubi-gʻarbiy (Qandahor),

janubi-sharqiy (Kvetta),

shimoli-gʻarbiy (Markaziy Gilzay),

shimoli-sharqiy (Yusufzay) lahjalari.

Hallberg esa pashtu tilining faqat Pokistondagi pashtun hududlarida soʻzlanadigan toʻrt guruh lahjasini aniqlagan. Ularning uch tasi aniq farqlanadi, toʻrtinchisini esa “kamroq farqlanadigan guruh” deb atagan. Hallberg aniqlagan toʻrt guruh quyidagilardan iborat:

1. Shimoliy guruh,

2. Janubiy guruh / Balujiston guruhi,

3. Markaziy guruh / Vaziriston va Janubiy Xayber-Paxtunxva (ilgari Shimoliy-Gʻarbiy Chegara Viloyati — N.W.F.P deb atalgan),

4. Oʻrta joylashgan hudud / Oʻrta qabila guruhi .

Biroq pashtu tilining ayrim lahjalarida oʻziga xos xususiyatlar mavjud boʻlib, masalan, Vaziriy lahjaga xos belgilar ushbu toʻrt qismli tasnifda toʻliq qamrab olinmagan. Shu sababli pashtu lahjalarini toʻrt qismga boʻlish ularning barcha xususiyatlarini qamrab olish va toʻliq namoyon etish uchun yetarli emas, yaʼni pashtu lahjalarining barcha koʻrinishlarini toʻliq ifodalab bera olmaydi.

Pashtu lahjalarining eng soʻnggi tasnifi besh qismli boʻlinish hisoblanadi. Ushbu tasnif Anne Boyle David tomonidan uning “Descriptive Grammar of Pashto and its Grammar” asarida ishlab

chiqilgan. Mazkur grammatikada pashtu tilining besh lahjasi tavsiflangan: janubi-gʻarbiy, janubi-sharqiy, shimoli-gʻarbiy, shimoli-sharqiy va markaziy lahja.

Yopiq soʻz turkumlaridagi /i/ va /e/ unlilari oʻrtasidagi moslikka oid misollar, Anne Boyle David grammatikasidan olingan boʻlib, quyida keltiriladi.

Janubi-gʻarbiy

پوري pori '-ga'
 باندي bāndi 'ustida'
 كي ki '-da'
 لاندي lāndi 'ostida'
 مي mi 'men, menga'
 دي di 'sen'
 ناسي tāsi 'siz'

Shimoli-gʻarbiy, shimoli-sharqiy

پوري pore '-ga'
 باندي bānde 'ustida'
 كي ke '-da'
 لاندي lānde 'ostida'
 مي me 'men, menga'
 دي de 'sen'
 ناسي tāse 'siz'

Pashto lahjalarini ikki asosiy guruhga ajratgan olimlar, avvalo, پ va و harflarining talaffuzidagi farqlarga eʼtibor qaratganlar. Anne David Boylega koʻra, sharqiy atamasi odatda shimoli-gʻarbiy va shimoli-sharqiy lahjalarni, gʻarbiy atamasi esa janubi-gʻarbiy va janubi-sharqiy lahjalarni anglatadi. Ularning biri Sharqiy lahja boʻlib, markazi Peshovar hisoblanadi, ikkinchisi esa Gʻarbiy lahja boʻlib, markazi Qandahordir.

Hendersonning yozishicha, faqat ş hududida imlo tizimiga mos keluvchi sakkiz aʼzoli qarama-qarshi fonemalar majmuasi mavjud: /š, ž, s, z, k, g, x, γ/. Qolgan hududlarda esa g tovushi Qandahor lahjasidagi z ga mos keladi, shuningdek Qandahor lahjasidagi ş tovushiga turli boshqa tovush turlari mos keladi. Bu holat quyida koʻrsatiladi.

Kandahar	<u>Pəsto</u>	ş z š ž k g x γ
Quetta	<u>Pəšto</u>	š ž s z k g x γ
NE	<u>Pəcto</u>	ç g š ž k g x γ
Peshawar	<u>Paxto</u>	x g š ž k g x γ ³⁷

Qandahor lahjasining fonemalari amaldagi yozuv tizimi bilan bevosita bogʻliq boʻlib, bu yozuv tizimi aynan Qandahor lahjasi asosida shakllangan. Pashto tilida ts va dz tovush birikmalari uchun maxsus grafemalar mavjud boʻlib, ular mos ravishda ٚ va ٚ harflaridir. Herbert Penzl Qandahor lahjasini nufuzli (prestijli) lahja deb eʼlon qilgan. Shu munosabat bilan u Qandahor lahjasida retroflex jarangsiz va jarangli sirgʻaluvchi undoshlar — ss va zz mavjudligini taʼkidlaydi; ular yozuvda mos ravishda oʻzgartirilgan s, sh hamda z, zh belgilarida ifodalanadi. ss, s, sh va zz, z, zh kabi tizimli qarama-qarshiliklar faqat Qandahor lahjasiga xosdir. Qandahor lahjasida grafik tizim (yozuv) bilan fonemik tizim oʻrtasida juda yaqin moslik mavjud. Shu sababli, ushbu grafemalar Qandahorda yaratilgan degan xulosaga kelinadi. Aynan shu bois Qandahor pashto alifbosining beshigi sifatida qaraladi.

Nangarhor (shuningdek Nangrahar yoki Ningrahar nomlari bilan ham tanilgan) Afg'onistonning 34 viloyatidan biri bo'lib, mamlakatning sharqiy qismida joylashgan. U Logar, Kobul, Laghmon va Kunar viloyatlari bilan, shuningdek Pokiston bilan xalqaro chegaraga ega. Viloyat 22 ta tumanga bo'lingan bo'lib, aholi soni jihatidan Afg'onistonning 34 viloyati orasida uchinchi o'rinda turadi. Jalolobod — Nangarhor viloyatining poytaxtidir.

Pashto tilining Nangarhor (sharqiy) va Qandahor (janubi-g'arbiy) lahjalari o'rtasidagi fonetik farqlar tizimli va barqaror xususiyatga ega bo'lib, ular tilning tarixiy rivoji, hududiy omillar hamda fonologik jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Qandahor lahjasi pashto adabiy yozuv tizimi bilan yaqin aloqador bo'lib, unda retrofleks jarangsiz va jarangli sirg'aluvchi undoshlar s/z fonemalarining saqlanib qolganligi kuzatiladi. Bu holat Qandahor lahjasining fonetik va grafemik tizimi o'rtasidagi kuchli muvofiqlikni ta'minlaydi hamda uning nufuzli (prestijli) lahja sifatida e'tirof etilishiga asos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Nangarhor va Qandahor lahjalari o'rtasidagi fonetik tafovutlar pashto tilining ichki dialektal tabaqalanishini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu farqlarni tizimli o'rganish nafaqat pashto dialektologiyasi, balki fonetika, fonologiya va tarixiy tilshunoslik sohalari uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi hamda pashto tilining adabiy normasi va yozuv tizimini tadqiq etishda mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Inomxojayev R. Pashtu tili grammatikasi. Monografiya. –T.: 2020.
2. Inomxojayev R. Afg'onistonda til vaziyati va til sohasidagi davlat siyosati. –T.: 2020. – 7b.
3. Маннонов А. Шарқшунослик масалалари. –T.: 2022.
4. Abduqodirova K., Abduvaliyeva O'. Relationship of Pashto Dialects with Literary Language and Their Role in Social Life (Based on the Dialects of Kandahar, Nangrahar, Kabul, and Paktiya) // *Builders of the Future*. – 2025. – Vol. 5, Issue 3. – P. 95–101.
5. Эълбурс Сацаев. “Южные диалекты языка пашто”. Москва 1988.
6. Boyle A.D. Descriptive grammar of Pashto and its dialects. – Germany, 2014.
7. Kamal K. D., Hanafi S. M. Lexical Variants in Pashto: A Comparative Study Accompanied in Paktia and Nangrahar // *International Journal for Research in Applied Sciences and Biotechnology*. – 2022. – Vol. 9, Issue 1. – P. 66–73.
8. Muhammad Ali Dinakhel. “Comparison of two dialects of Pashto spoken in Afghanistan and Pakistan: Kandahari dialect and Yusufzai dialect”. Peshowar. 2020.
9. بى سى ل ل هابى بىج “۱۳۹۵ لباک”. وت بن پ يوجهل سوماق.